

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Aholi maskanlarini vujudga kelishida geomorfologik omillarning o'rni va ahamiyati	231
O.I.Abdug'aniyev	
Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash usullari	236
T.D.Jumayev, Sh.B.Qurbanov	
O'zbekiston tog' zonasasi ma'muriy-hududiy bo'linishi xususiyatlari va ularni takomillashtirish	244
P.A.Xasanov	
Landshaftlardan foydalanishda turli yondashuvlarning qo'llanilishi va tizimli yondashuv	250
<hr/>	
QISHLOQ XO'JALIGI	
N.A.Abdujalil, S.A.Bayrambay, I.N.Mamajonov	
Urug'lik paxtani yetishtirish va yuqori kondisiyali urug'lik fondini tayyorlash.....	257

ILMIY AXBOROT

K.G'.Baykalanov	
O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samarodarligini oshirishda jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhit farovonligining o'rni.....	263
G.M.Maxsudova	
Ekologik ta'limni modernizatsiyalashda ekosavodxonlikni shakllantirishning pedagogik va integrativ jihatlari	267
Sh.Ismatov	
Yangi O'zbekiston – yangi ma'naviy makon	272
A.A.Saodatov	
Yoshlar ekologik madaniyatida nodavlat-notijorat tashkilotlarining tutgan o'rni.....	276
M.X.Raxmatulloev	
Buxoro viloyat radiosining tashkil topishi tarixi va faoliyati	280
D.I.Nuriddinova	
Ona tili ta'limi jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirish texnologiyasi.....	285
D.M.Redjabova	
Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning yangi bosqichida xotin-qizlarning davlat tashkilotlaridagi faolligi	290
D.A.Abduraxmonov	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning metodologik jihatlari	294
K.I.Turdaliyeva	
Интерпретация литературы по формированию функциональной грамотности учащихся начальных классов	297
N.A.Subxonova	
Mahalliy va xorij manbalarida Amir Shohmurod shaxsi va faoliyati tavsifi	303
Sh.M.Xaydarova	
Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlar o'ttasidagi dialektik munosabatlar va ularning rivojlanishi	307
D.M.Xusanov	
Axloqiy qadriyatlar va ularning postmodern jamiyatdagi o'ziga xos jihatlari	311
R.S.Batirov	
Ijtimoiy kapital tushunchasi va uning asosiy elementlari xususida	315
A.X.Mamadalimov	
Kosmopolitizm tushunchasi va uning asosiy yo'nalishlari xususida	319
Y.Sh.Yunusova	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy modernizatsiya jarayonlarining falsafiy xususiyatlari	324
N.T.Buzrukova	
Zamonaviy jamiyatda shaxsiy xavfsizlik va daxlsizlikni ta'minlash zarurati va falsafiy asoslari	327



UO'K: 316.75

KOSMOPOLITIZM TUSHUNCHASI VA UNING ASOSIY YO'NALISHLARI XUSUSIDA**ПОНЯТИЕ КОСМОПОЛИТИЗМА И ЕГО ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ****THE CONCEPT OF COSMOPOLITANISM AND ITS MAIN DIRECTIONS**

Mamadalimov Azimjon Xasanboevich
 Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Jahon miqyosida yuz berayotgan hozirgi jarayonlar milliy davlatlarning bir-biriga yaqinlashuvi, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, mafkuriy hamda madaniy jihatdan integratsiyalashuvini taqozo etmoqda. Ushbu tendensiyalar, ma'lum darajada, kosmopolitizm ko'rinishida bo'lib, globallashuv jarayonlari ta'sirida yanada yaqqol tus olmoqda. Mazkur maqolada "kosmopolitizm" tushunchasining zamonaviy ta'riflari tahlil qilinib, ushbu fenomenning asosiy yo'nalishlari ko'rsatib berilgan.

Аннотация

Современные глобальные процессы требуют сближения национальных государств и их интеграции в экономическом, политическом, социальном, идеологическом и культурном аспектах. Эти тенденции в определенной степени проявляются в форме космополитизма, становясь более выраженным под влиянием процессов глобализации. В данной статье анализируются современные определения понятия "космополитизм" и обозначаются основные направления этого феномена.

Abstract

Current global processes are prompting the convergence of nation-states and their integration in economic, political, social, ideological, and cultural aspects. These trends manifest, to some extent, as a form of cosmopolitanism, becoming more pronounced under the influence of globalization processes. This article analyzes modern definitions of the concept of "cosmopolitanism" and outlines the main directions of this phenomenon.

Kalit so'zlar: kosmopolitizm, kosmopolit, inson, fuqarolik, davlat, vatanparvarlik, insonparvarlik, umuminsoniylik, bag'rikengilik, madaniyat, sivilizatsiya, umuminsoniy qadriyatlar, geopolitika, globallashuv.

Ключевые слова: космополитизм, космополит, человечество, гражданство, государство, патриотизм, гуманизм, универсализм, толерантность, культура, цивилизация, универсальные ценности, geopolitika, глобализация.

Key words: cosmopolitanism, cosmopolitan, humanity, citizenship, state, patriotism, humanitarianism, universalism, tolerance, culture, civilization, universal values, geopolitics, globalization.

KIRISH

Bugungi kunda hamma narsani inkor etishga, hech qanday ijtimoiy me'yor va qonun-qoidalarni tan olmaslikka da'vat etuvchi nigilizm yoki ko'p hollarda vatansizlikni mutloqlashtiradigan kosmopolitizm kabi mafkuralar turli ko'rinishlarda namoyon bo'lmoxda. Xususan, hozirda globallashuv jarayonining kengayishiga aholining ijtimoiy-iqtisodiy faolligi, ayniqsa, ishchi kuchining migratsiyasi sezilarli ta'sir qilmoqda. Dunyoning birorta ham davlati migratsiya jarayonlaridan chetda qolayotgani yo'q. Buning ham o'ziga xos sabablari bor. Avvalo, donor davlatlar, ya'ni migrantlarni yetkazib beradigan mamlakatlarda aholining tez o'sishi, mehnatga layoqatli bo'lgan aholi orasida ishsizlik darajasining yuqoriligi, maoshning pastligi, yetarli darajada hayot kechirish uchun zarur bo'lgan yuqori ish xaqi to'lanadigan ish topish va o'z kasbiy mahoratini oshirish imkoniyatining cheklangani shular jumlasidandir. Retsipiyyent, ya'ni qabul qiluvchi davlatlar uchun esa, qo'shimcha arzon ish kuchiga, yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyoj, hayot sharoitlari va maoshning yuqori darjasini xos bo'lib, bu esa mehnat migratsiyasi uchun qulay sharoit yaratmoqda. Aholining siljishi, o'z navbatida, obyektiv hodisa bo'lib, ma'lum ma'noda xalqaro aloqalar va iqtisodiy hamkorlikka ko'maklashadigan jarayonlarning rivojlanishiga, xalqaro transport va kommunikatsiya vositalarining takomillashuviga, shuningdek, aholining xalqaro moliyaviy

tuzilmalardan keng foydalanishiga, axborot tarqatish sur'atiga ijobiy ta'sir etadi. Shu bilan birga, hozirgi paytda aholi migratsiyasi bilan bog'liq salbiy jihatlar ham namoyon bo'limoqda. Bu esa noqonuniy migratsiya to'lqinlarining davlat tomonidan doimiy ravishda nazorat qilinishini talab etmoqda. Muhojirlar orasida uyushgan jinoyatchilik, nizolar va boshqa qonunbuzarliklarning vujudga kelishi hamda o'sishi ko'pgina davlatlarning barqarorligiga salbiy ta'sir etayotganini mutaxassislar ta'kidlamoqda.

Kosmopolitizm ko'pincha milliy an'analarga befarqlik, milliy madaniyatga e'tiborsizlikni targ'ib qilgani uchun tanqid qilinadi.

"Kosmopolitizm" (yunon. kosmopolites — dunyo fuqarosi) — dunyo fuqaroligini da'vo qilish, shuningdek, milliy va davlat suverenitetini rad etish, turli milliy an'ana, madaniyat hamda vatanzavaliy tuyg'usidan voz kechish g'oyasini ilgari suradigan qarash.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kosmopolitizmning negizlari antik davr falsafasida vujudga kelgan. Qadimgi yunon faylasufi Laertiying ta'kidlashicha, "kosmopolit" so'zi ilk bor kiniklar ta'limoti vakili sinoplik Diogen tomonidan qo'llangan. Boshqa bir yunon mutaffakiri Plutarxning fikriga ko'ra, ushbu ta'limotni kitalik Zenon kiritgan. Epiktet nazarida esa kosmopolitizm atamasining muallifi Suqrot bo'lgan. Uning aytishicha, «Agarda faylasuflarning odam va Xudoning o'rtaida yaqinlik bor, degan fikrlari to'g'ri bo'lsa, unda insонning vatani qayer degan savolga Suqrotning men afinalik ham, karfagenlik ham emasman, men – kosmopolitman, degan so'zlari bilan javob berish lozim» bo'lgan. Bunday ma'lumotlar Sitseron asarlarida ham uchraydi. Ayrim taddiqotchilarning fikriga ko'ra, kosmopolitizm g'oyalari sofistlar ta'limotining tarafdarları asarlarida ham ifodalangan. Antik polisni inqiroziga sabab bo'lgan Peloponess urushlari makedoniyalik Iskandar imperiyasining paydo bo'lishi, keyinchalik esa Rim hukmronligining kuchayishi turli mazmundagi kosmopolitik qarashlarni keltirib chiqargan. Makedoniyalik Iskandar, Mark Avreliy bu g'oyalarni yangi hududlarni qo'liga kiritish harakatlarida ko'rgan bo'lsa, stoiklar — Zenon va Kitiona kosmopolitizm idealini kishilarning hayotini umumjahon qonunlari orqali amalga oshirish imkonini beradigan yagona ijtimoiy shaklni izlashda deb bilgan. Xususan, kirinaklarning kosmopolitik g'oyasi ularning «qayerda yashash yaxshi bo'lsa, o'sha joy Vatan» degan iborasida o'z aksini topgan.

O'rta asrlarda katolik cherkovi keskin kosmopolitik tendensiyalar tarafdoi bo'lgan. Uyg'onish davrida dunyo fuqaroligi g'oyalari feodal tarqoqlikka qarshi yo'naltirilgan edi. Bu g'oyalalar Dante Alighieri, Tomazo Kampanella, Petrarka, Piko dela Mirandello, Rotterdamlik Erazm, Vives, Rable, Monten kabi mutafakkirlarning asarlarida o'z aksini topgan. Germaniyada bunday g'oyalarni Lessing, Gyote, Shiller, nemis mumtoz falsafasi vakillari I.Kant va Fixte ilgari surgan. Ularning kosmopolitizmi vatanzavaliy tuyg'ulari bilan mushtarak bo'lib, milliy birlikka erishish maqsadida yuzaga chiqqan. Keyinchalik kosmopolitizm keskin xarakterga ega bo'lib, kapitalning daromad orqasidan quvish manfaatlarini aks ettira boshlaydi. Jon Kennedi «Tinchlik korpusi»ni tashkil etib, dunyoning turli joylariga ushbu tashkilotning yosh xodimlarini yubora boshlaydi, ularning maqsadi — hammaga ingliz tilini o'rgatish edi. Aslida, har qanday millat, katta-kichikligidan qat'i nazar, insoniyatning boyligidir va shu bois ularning tili, madaniy va boshqa xususiyatlarining yo'q bo'lib ketishi Yer yuzidagi milliy va genetik fondning, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi. Bu haqiqatni aslo inkor etib bo'lmaydi. Lekin shunga qaramay, AQSH Serbiyani aynan ushbu mamlakat ahli e'tiqod qiladigan pravoslav diniy mazhabida muqaddas hayat ayyomi hisoblangan kunda bombardimon qilgani uning milliy-ma'naviy an'analarini nazar-pisand qilmaganidan dalolat beradi.

Jahon miqyosida yuz berayotgan hozirgi jarayonlar milliy davlatlarning bir-biriga yaqinlashuvi, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, mafkuraviy hamda madaniy jihatdan integratsiyalashuvini taqozo etmoqda. Ushbu tendensiyalar, ma'lum darajada, kosmopolitizm ko'rinishida bo'lib, globallashuv jarayonlari ta'sirida yanada yaqqol tus olmoqda.

Bugungi kunda kishilik jamiyatining global yaqinlashuvi, avvalo, texnik taraqqiyot, transport vositalari, aloqa va kommunikatsiya tarmoqlari, mikroelektronikaning rivojlanishi bilan bog'liq. Postkommunistik makonda mustaqil davlatlarning vujudga kelishi, ularning bozor iqtisodiyotiga o'tishi va jahon xo'jalik aloqalari tizimiga faol kirishishi globallashuvning yana bir kuchli omiliga aylandi[1].

ILMIY AXBOROT

Kosmopolitizm tushunchasiga bo'lgan munosabat tarixiy sharoitlarga, mualliflarning shaxsiy xohish-istiklariga qarab, liberallashuv darajasi, hozirgi siyosiy rejim, muammolar va boshqalar bilan bog'liq holda rivojlanib, o'zgarib bormoqda. Bugungi kunda uning butun mohiyati va xususiyatlarini ochib beradigan yagona tushuntirishni aniqlash mumkin emas. Shuning uchun ushbu maqolamizning maqsadi kosmopolitizmning mavjud talqinlarini tahlil qilish va uning asosiy yo'nalishlari va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Hozirgi zamon faylasuflari va sotsiologlari kosmopolitizmni borliqning yangi paradigmasi, insoniyatning ideal mavjudligi sari zarur qadami deb biladilar. Kosmopolitizmning umumiy tushunchasi xorijlik tadqiqotchilar U.Bek, D. Archibugi, D.Xelda, X.Brigxauza va G.Broka, R.Koyena va R.Fayna, M.Fezerstouna, D.Xollingera, S.Malkolmsona, S.Polloka, X.Bxabxa, S.Brekenridja, S.Shevlera, Dj.Valdron va boshqalarning asarlarida o'z ifodasini topgan.

Ijtimoiy fanlarda kosmopolitizm mafkura yoki mafkuraviy harakat, falsafiy dunyoqarash, ta'limot, konsepsiya, "dunyoqarashning alohida turi" va boshqa ma'nolarda ta'riflanaib, utopik dunyoqarash turi, siyosiy g'oyalalar va falsafalar majmui deb ataladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kosmopolitizm to'g'risidagi qarashlarni tahlil qilib, uni to'rtta asosiy yo'nalish borasida tahlil etish mumkin:

1. Mikrodarajada: shaxs – shaxs munosabatlari tizimida;
2. Makrodarajada: shaxs – davlat – millat tizimida;
3. Mega darajada: dunyoviy ijtimoiy tizimlarning shakllanishi sharoitida;
4. Meta darajada: butun olam kontekstida.

Mikrodaraja yo'nalishni ko'rib chiqadigan bo'lsak, iqtisodiy ensiklopediyada "kosmopolitizm" chet elliklarning sofistik ochiq ko'rinishi, kenofobiya (chet elliklardan nafrat va qo'rquv) ning aksiyatida taqdim etiladi[2].

"Kosmopolit" haqidagi xorij lug'atida bu barcha odamlarga ularning millatiga, ya'ni ma'lum bir shaxsnинг ma'lum bir davlatga tegishli ekanligiga e'tibor bermasdan, teng munosabatda bo'lgan shaxs ekanligi aytilgan[3]. Darhaqiqat, bu yerda kosmopolitizm bizga dunyoqarash sifatida taqdim etiladi – dunyo va unda inson, jamiyat va insoniyatning o'rni, insonning dunyoga va o'ziga bo'lgan munosabati, shuningdek, uning asosiy hayotiy pozitsiyalari haqidagi qarashlar tizimi[4].

"Kosmopolit" so'zini xorijiy lug'atdan kelib chiqib, barcha odamlarga, ularning millatidan qat'i nazar, bir xil munosabatda bo'lgan insonni anglatadi, ya'ni bu odamning alohida bir davlatga yoki millatga mansubligini inobatga olmaslik degani[5]. Aslida, kosmopolitizm shunday jahonqarash sifatida taqdim etilmoqda — bu inson, jamiyat va butun insoniyatning jahonga va o'z-o'zining o'rniqa qaratigan qarashlari, shuningdek, ushbu qarashlarga mos keluvchi hayotiy pozitsiyalar, ideallar, faoliyat prinsiplari va qadriyatlardir [6].

Ikkinci yo'nalish esa ko'proq ziddiyatli va asosan salbiy tomondan ko'rsatiladi. Masalan, kosmopolitizm — bu vatanga va o'z xalqiga nisbatan mehrsizlikni propagandalaydigan nazariya bo'lib, milliy fuqarolikni jahon fuqaroligicha almashtirishni talab qiladi [7]; u milliy an'analar va madaniyatdan voz kechishni, davlat va milliy suverenitetni rad etishni ta'kidlaydi, insonlar jamiyatining yagonaligi nomiga [8]; zamonaviy shakli esa, jamiyat tashkilotlanishining milliy-davlat turi o'tmishda qolgan, milliy aloqalar va an'analar muhim emas, aslida esa insonning haqiqiy vatani butun dunyodir, degan ishonchda namoyon bo'ladi [9]. Bu kontekstda kosmopolitlarga vataniga nisbatan mehrsizlik [10], uning manfaatlaridan ajralish, o'z xalqiga norozilik [11], milliy nuqtai nazardan o'ziga identifikasiya qilishning yo'qligi[12] kabi xislatlar yo'naltiriladi.

"Inson — davlat — millat" kontekstida kosmopolitizm ideologiya sifatida namoyon bo'ladi — bu insonlar, haqiqatga va biriga nisbatan munosabatlari, ijtimoiy muammolar va ziddiyatlar, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash yoki ularni o'zgartirish maqsadidagi ijtimoiy faoliyat dasturlarini baholashga qaratilgan qarashlar va g'oyalalar tizimidir[13].

Uchinchi yo'nalish bizga jahon fuqaroligi, planetar jamiyat va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan insoniyatning hamjihatligini taqdim etadi. Bugungi kundagi lug'atlarda eng ko'p uchraydigan ta'riflardan biri shunday: kosmopolitizm — (qadimgi grekcha коσμοπολίτης — kosmopolit, jahon fuqarosi) — jahon fuqaroligini asos qilgan ideologiya, qarashlar tizimi bo'lib, u umuminsoniy qadriyatlarga ustuvor ahamiyat berib, milliy muammolarga esa ikkinchi darajali ahamiyat berishni ta'kidlaydi[14]. Bu ta'rif zamonaviy siyosatshunoslik va sotsiologiya uchun xosdir.

F.A.Brokgauz va I.A.Yefron ensiklopedik lug'atida kosmopolitizm quyidagicha talqin qilinadi: bu — "insoniyatning umumiyligini va har bir xalq va davlatlarning manfaatlarning bir-biriga bog'liqligini his qilish". Mualliflar davom etadi: "butunlik haqidagi fikr har bir qismning haqiqiy ahamiyatini inkor etmaydi, shuningdek, vatanga muhabbat, hatto o'z oilasiga bo'lgan muhabbatga zid emas, shuningdek, umuminsoniy manfaatlarga sadoqat, patriotizmdan o'ziga xos emas". Mualliflarning aytishicha, "masala faqat etika manfaatini baholashning oxirgi yoki eng oliy mezonida va shubhasiz, bu yerda asosiy ustuvorlik butun insoniyatning farovonligiga, ya'ni har bir qismning haqiqiy farovonligini o'z ichiga olgan hamda unga qaratilgan bo'lishi kerak" [15].

Kosmopolit bo'lislis uchun inson, o'z vazifalarini vatanga nisbatan emas, balki butun insoniyatga nisbatan hisobga olishga yoqlashishi kerak [16]. Bu tasavvurda kosmopolitizm — bu "siyosiy imkoniyatlar" emas, balki butun insoniyat doirasida aqlii va mantiqiy birlashishdir [16]. Bu yerda yana bir jahonqarashning aspekti ko'rsatiladi, ya'ni o'zini dunyodagi o'rnnini aniqlash va dunyoni umumiy holda ko'rish.

To'rtinchchi yo'naliish "kosmopolitizm"ni to'g'ridan-to'g'ri haqiqiy voqelik, zamonaviy unviversumning moddiy substansiysi va boshqa tashkil etuvchi prinsip sifatida ko'rsatadi. Bu yo'naliishda kosmopolitizm real dunyo tizimini tashkil etuvchi prinsip sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Ulrix Bekning ijtimoiy va siyosiy falsafadagi ishlariga to'xtalinadi. U kosmopolitizmni "har kunigi kosmopolitizm" — ya'ni zamonaviy transnatsional jamiyatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va ularning ko'p millatli birligi deb aniqlagan. Uning fikricha, kosmopolitizm — bu bugungi real dunyoni tashkil etuvchi asosiy qarashlar tizimidir[17].

Shu bilan birga, bizning fikrimizga ko'ra, Ulrix Bek zamonaviy haqiqatni yoki "muammoning faqat o'rta qismi"ni ko'rib chiqadi. Kosmopolitizm faqat zamonaviy siyosiy va ijtimoiy hayotda emas, balki boshqa sohalarda ham bor. Masalan, St. Tulminning "Kosmopolis" kitobida aytishicha: «Aleksandr Maqedonskiy elliinlarning faqat shaxsiy shahar davlatlaridan chekinib, geografik va madaniy gorizontlarni kengaytirganida, stoik filosoflar paydo bo'ldi, ular "tabiiy" va "ijtimoiy" tartiblarni bir butunga olib kelganlar». Ular buni "har bir narsa" o'ziga xos tartibni namoyon qiladi, bu tartib esa "Aql" yordamida barcha narsalarni birlashtiradi, deb ta'kidlashgan. Sotsial va tabiiy tizimlar bir butunning ikki tomoni sifatida yoritilgan — ya'ni cosmos + polis (kosmopolis) [18:68].

Bu ta'rifda muhim jihat sifatida ijtimoiy va tabiiy tizimlar o'rtasidagi birlikka e'tibor qaratilgan. Demak, kosmopolitizm faqat insonlar bilan bog'liq emas, balki yer yuzi biosferasi va universumdagagi barcha tirik moddalarni qamrab oladi. Shu nuqtai nazardan, kosmopolitizm tirik moddaning va unviversumning tashkil etuvchi prinsipi sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, kosmopolitizmni amalga oshirishning uchta asosiy darajasi aniqlanadi:

- Gnosseologik — uni inson tomonidan anglash;
- Fizik — uni moddiy (ijtimoiy) dunyoda amalga oshirish;
- Metafizik — universum darajasida uni amalga oshirish;

Biologiyada kosmopolitizm konsepsiysi juda sodda va tushunarli tarzda tushuntiriladi. Biologik ensiklopedik lug'atda kosmopolitlarning ta'rifi keltirilgan: "Kosmopolitlar — yer yuzida yashashga munosib bo'lgan har qanday mintaqaga tarqalgan o'simliklar va hayvonlar turlari (yoki boshqa taksonlar)"[19]. Sovet ensiklopediyasida ham o'xshash ta'rif berilgan: "Kosmopolitlar — turlar, janrlar, oilalar yoki kengroq guruhlar bo'lib, ular yer yuzi bo'ylab tarqalgan" [20].

V.N. Kiselyov kosmopolitlarning geografik o'lchamini aniqlab, bunday deb ta'riflaydi: "kosmopolitlar — turlar, janrlar, oilalar va boshqa katta taksonomik birliklar bo'lib, ular 3 ta yoki undan ortiq qit'ada yashashadi. Yer yuzida tarqalgan organizmlar kosmopolitlar qatoriga kirishi uchun ularning barcha qit'alarda mavjud bo'lishi kerak". Kosmopolitlar faqat katta hududga tarqalgan emas, balki keng ekologik tolerantlikka ham ega: ular turli xo'jalik tizimlarida yashayotgan jonzotlar. V.Kiselyov insonni "kosmopolitizmga eng yaqin tur" deb hisoblaydi [21].

"Inson — yer yuzidagi 3 millionga yaqin biologik turlardan biri. Ekologik nuqtai nazardan, insoniyat butun dunyo bo'ylab yashovchi biologik tur hisoblanadi" ¹[22]. Demak, kosmopolitizm biologiyada — bu butun dunyo bo'ylab tarqalishdir, va ayrim o'simliklar va hasharotlar bilan birga, biologik nuqtai nazardan haqiqiy kosmopolit sifatida inson ham hisoblanadi.

¹ Человек как биосоциальный вид/Экология человека. Экологические связи человека. – [Электронный ресурс] – Режим доступа: <http://ecologiya-cheloveka.ru>

XULOSA

Kosmopolitizm asosan insonlar o'rtasidagi birlik va umumiylikka, ya'ni barcha odamlarning haqiqatda bir xil huquqlarga va qadriyatlarga ega bo'lishini ko'zda tutadi. Bu nuqtai nazarda, fuqarolik va davlat faqat geografik va huquqiy konsepsiylar bo'lib qoladi, kosmopolitik fikrlarga qarama-qarshi o'laroq, jamiyatning milliy yoki davlatchilik identitesi muhim emas.

Kosmopolitizm insonni «jahon fuqarosi» deb qarasa-da, bu hozirgi kunda ko'pincha fuqarolik va davlat konsepsiylari bilan ziddiyatga keladi. Masalan, ko'pincha kosmopolitiklar milliy davlatlar yoki milliy qonunlar orqali cheklangan boshqaruva manfaatlardan uzoqlashishni xohlaydi. Shuningdek, davlatchilik va fuqarolik konsepsiylari kosmopolitizmga nisbatan tanqidiy yondoshadi, chunki ular bir yoki bir nechta davlatlarga biriktirilgan fuqarolarning qonunga muvofiq manfaatlarni himoya qilishga yo'naltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, kosmopolitizm va davlatchilik o'rtasidagi farq, asosan, har bir insonning ijtimoiy va siyosiy tanlovi, shuningdek, odamning o'zligini belgilash va jamiyatdagi o'rnnini tushunishga bog'liq. Kosmopolitizm, insonni umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, davlat va millatdan mustaqil ravishda ko'radi, lekin ko'pincha bu g'oya amaliyotda davlatlar, fuqarolik va milliy manfaatlarga qarama-qarshi bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nazarov Q., Qo'chqorov V. Kosmopolitizm. Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati. – Toshkent, 2009. – B. 319-321.
2. Космополитизм/Экономическая энциклопедия. – [Электронный ресурс] – Режим доступа: http://tlumach.com.ua/Ekonomichna_entsyklopediya/page/kosmopolityzm.4150
3. Космополит/Полный словарь иностранных слов, вошедших в употребление в русском языке. – [Электронный ресурс] – Режим доступа: http://dic.academic.ru/dic.nsf/dic_fwords/21225/Космополит
4. Мировоззрение/Философия: Энциклопедический словарь/Под редакцией А.А. Ивина. – М.: Гардарики, – 2004.
5. Космополит/Полный словарь иностранных слов, вошедших в употребление в русском языке. – [Электронный ресурс] – Режим доступа: http://dic.academic.ru/dic.nsf/dic_fwords/21225/Космополит.
6. Мировоззрение/Философия: Энциклопедический словарь/Под редакцией А.А. Ивина. – М.: Гардарики, – 2004.
7. Космополітізм/Словник іншомовних слів. – [Электронный ресурс] – Режим доступа: http://tlumach.com.ua/slovnyk_inshomovnyk_sliv/page/kosmopolityzm.9680.
8. Космополитизм/Энциклопедия социологии. – [Электронный ресурс] – Режим доступа: http://onlineslovarei.com/entsiklopediya_sotsiologii/page/kosmopolitizm.1633.
9. Космополитические организмы/Универсальный энциклопедический словарь. – [Электронный ресурс] – Режим доступа: http://tlumach.com.ua/use_universalnyy_slovnyk_entsyklopediya/page/kosmopolychni_organizmy.10668.
10. Космополит/Экономическая энциклопедия. – [Электронный ресурс] – Режим доступа: http://tlumach.com.ua/Ekonomichna_entsyklopediya/page/kosmopolit.4149.
11. Космополитизм/Универсальный энциклопедический словарь. – [Электронный ресурс] – Режим доступа: http://tlumach.com.ua/use_universalnyy_slovnyk_entsyklopediya/page/kosmopolyzm.10667.
12. Космополит/Словарь иностранных слов. – [Электронный ресурс] – Режим доступа: <http://www.onlinedics.ru/slovar/inyaz/i/kosmopolit.html>
13. Келле В.Ж. Идеология//Философский энциклопедический словарь/Гл. редакция: Л.Ф. Ильичёв, П.Н. Федосеев, С.М. Ковалёв, В.Г. Панов. – 1983. – М.: Советская энциклопедия. – 840 с
14. Ивнин И. Философский словарь. – [Электронный ресурс] – Режим доступа: <http://www.terme.ru/dictionary/187/word/Космополитизм>.
15. Космополитизм//Энциклопедический словарь Брокгауза-Ефрана. – [Электронный ресурс] – Режим доступа: <http://www.brocgaus.ru/text/054/455.htm>
16. Межуев Б. Сотворение космополиса. – [Электронный ресурс] – Режим доступа: <http://www.politstudies.ru/universum/esse/10mej.htm>
17. Тохтобин Е.А. Понимание современного космополитизма. – [Электронный ресурс] – Режим доступа: <http://tnu.podelise.ru/docs/index-218515.html>
18. Toulmin St. Cosmopolis. The Hidden Agenda of Modernity. – Chicago, – 1992. – 228 p. – p. 68.
19. Космополит/Биологический энциклопедический словарь/Гл. ред. М.С. Гиляров; Редкол.: А.А. Бабаев, Г.Г. Винберг, Г.А. Заварзин и др. – 2-е изд., исправл. – М.: Сов. Энциклопедия, – 1986.
20. Космополит/Большая советская энциклопедия. – М.: Советская энциклопедия. – 1969–1978.
21. Киселёв В.Н. Биогеография с основами экологии. – [Электронный ресурс] – Режим доступа: b-energy.ru/biblioteka/46-biogeografiya-s-osnovami-ecologii.html
22. Человек как биосоциальный вид/Экология человека. Экологические связи человека. – [Электронный ресурс] – Режим доступа: <http://ecologiya-cheloveka.ru>